DUNYO TILLARINING GENEALOGIK (QARINDOSHLIK) TASNIFI VA UNING TAMOYILLARI

Ilmiy maslahatchi:**Sadoqatoy Bahodirovna**

Boqijonova Gulnoza Zoirjon qizi
Andijondavlat chet tillari instituti Xorijiy filologiya va turizm fakulteti AF 102- guruh
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.24201614

Annotatsiya: Maqolada dunyo tillarining genealogik tasnifi, uning nazariy tomonlari, tillarning kelib chiqishi va o'zaro qarindoshlik aloqalari o'rganiladi. Shuningdek, qarindosh tillarning vujudga kelish sabablari va ularning tarqalish geografiyasi tahlil qilinib, turkiy hind- evropa, xitoy-tibet hamda afro-osiya tillari oilalari misolida qiyosiy ko'rib chiqiladi.Tadqiqotda bir oilaga mansub tillarning xalqaro muloqot, axborot almashinuvi va chet tillarini o'zlashtirish jarayonidagi amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda tegishli ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: genealogik tasnifi,praytil,til oilalari, turkiy tillar,hind-evropa tillar, xitoy-tibet tillar, afro-osiya tillar,qiyidiy-tarixiy metod.

Аннотация: В статье рассматривается генеалогическая классификация языков мира,ее теорические принципы,происхожденые Также анализируются причины возникновения родственных языков и география их распространения на примере семей тюркских, индоевропейских,китайско-тибетских и афразийских языков.В исследовании расккрыто практическое значение языков одной семьи в процессе международного общения, обмена информацией и усвоения иностранных языков, а также сформулированы соответствующие научные виводы.

Ключевые слова: генеалогическая классификация, праязык,языковые семьи,тюркские языки, индоевропейские языки,китайско-тибетских языки, афразийских языки, сравнительно - исторический метод.

Abstract: The article examines the genealogical classification of the world's languages, its theoretical principles,the origin of languages,and their genetic relationships.Futhermore, it analyzes the causes of the emergence of related languages and their geographical distribution through the examples of the Turkic, Indo-European, Sino-Tibetan, and Afroasiatic language families.The study highlights the practical significance of languages belonging to the same family in the processes of international communication,information exchange, and foreign language acquisition, alongside formulating relevant scientific conclusions.

Keywords: genealogical classification,proto-language, language families,Turkic languages, Indo-European languages, Sino-Tibetan languages, Afroasiatic languages,comparative -historical method.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Qadimiy lingvistik gipotezalarga ko'ra, dunyo tillarining barchasi yagona umumiy uzakdan yer yuziga yoyilgan bo'lishi mumkin.Biroq uzoq vaqt davomida ularning bir biridan ajralib ketishi oqibatida hozirgi xilma-xil tillar vujudga kelgan.

Tillar genealogik tasnifi jihatidan qarindosh tillarga ajraladi.O'zaro qarindosh tillarda- ikki yoki undan ortiq tillar muayyan tarixiy davrda yagona tildan kelib chiqqanlik xususiyati mavjud bo'ladi.Ularda so'zlar o'zaro o'xshash yoki bir o'zakdan kelib chiqqan bo'ladi, bir-biri bilan tovushlar o'zgarishidagi qat'iy tarixiy qonunlarni saqlab qoladi, grammatik jihatdan umumiylikka ega bo'ladi.

Dunyo tillari kelib chiqishiga ko'ra bir qancha guruhlarga ajraladi.Genealogik tasnifi orqali turli tillar orasidagi tariziy- genealogik aloqalarni aniqlash, ularni qaysi tildan tarqalganligini aniqlashimiz mumkin.Tillar genealogik jihatdan tahlil qilinganda,bir qancha guruhlarga ajraladi.Genealogik tasnif orqali bir oila yoki guruhga mansub tillarning kelib chiqqan boshlang'ich nuqtasini topish, ularning grammatik va fonetik o'xshashliklarini, tarixiy o'zgarishlari haqidagi to'liq ma'lumotlarni qo'lga kiritishimiz mumkin.

Genealogik til oilalari bugungi kunda dunyoda chuqur qiyosiy tadqiqotlar va olimlarning umumiy hisob -kitoblariga ko'ra 400 tadan ortqni tashkil qiladi. Bu oilalar yoki guruhlar tarkibiy qismi va aholi o'rtasida tarqalishiga ko'ra farq qiladi.Masalan, niger-kongo oilasi,avstrineziya oilasi yoki trans-yangi Gvineya oilasi kabi guruhlarning tarkibida 1500 tadan ortiq tillar Shuningdek, yer yuzida keng yoyilgan va gaplshuvchilar soniga ko'ra mashhur tillar ham mavjud bo'lib, ular:

1.Hind-evropa tillari oilasi- dunyodagi eng ko'p tarqalgan va eng chuqur o'rganilgan til oilasi hisoblanadi.Bugungi kunda dunyo aholisining tahminan 3 milliarddan ortiq qismi shu tilda so'zlashadi.Bu oila tarkibiga ingliz tili, rus tili,ispan tili,fors tili, fransuz tili,tojik tili va hind tili kiradi. Geografik tarqalishi:Yevropa, Janubiy Osiyo (Hindiston, Pokiston), Yaqin Sharq, Shimoliy va Janubiy Amerika, Avstraliya hududlari.

2.Xitoy-tibet tillari oilasi - so'zlashuvchilarning soni bo'yicha hind-evropa tillari oilasidan keyin 2-o'rinda turadi. Bu guruh tillarida 1.4 milliarddan ortiq kishi so'zlashadi.Xitoy- tibet paytilidan kelib chiqqan bo'lib, geografik tarqalish hududlari : Sharqiy, Janubiy -sharqiy, Janubiy Osiyo.

O'rta Osiyodagi eng mashhur tillar oilasi -turkiy tillari bo'lib , bu tilda hozirda 200 milliondan ortiq kishi muloqot qiladi. Bu guruhga mansub tillar grammatik va leksik jihatdan juda yaqin hisoblanib, barchasi yagona turkiy praytildan tarqalgan.Turkiy tillar bugungi kunda Yevropaning sharqiy qismidan boshlab, Kavkaz, O'rta Osiyo,Sibir va Xitoyning g'arbiy hududlarigacha bo'lgan ulkan maydonni egallagan.Uning tarkibiga o'zbek tili ,qozoq tili, turk tili, qirg'iz tili, ozorbayjon tili, tatar tili va uyg'ur tili kiradi.

Bir oila yoki guruhga mansub tillarning mavjudligi xalqaro muloqot jarayoniga, axborot almashinuviga, chet tillarini o'zlashtirish va yana ko'plab ijobiy o'zgarishlarga ta'siri sababli ulkan ahamiyatga ega.Grammatik qoidalarning o'xshashligi, so'z o'zaklari yoki ma' nosidagi umumiylik, fonetik yaqinligi xalqaro va ijtimoiy munosabatlarda salmoqli o'rinni egallaydi.

Ushbu tadqiqotda, dunyo tillarining genealogik tasnifi, qarindosh tillarning shakllanishi,bir oilaga mansub tillar va ularning geografik yoyilishi atroflicha ko'rib chiqildi.Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'zaro qarindosh tillar umumiy o'zak tildan tarqalgan bo'lib,ular kishilar o'rtasidagi muloqot jarayoniga yordami bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.Grammatik va fonetik o'xshashliligi qarindosh tillarni o'rganishni osonlashtiradi.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-Toshkent: " Talqin",2005.
2. Nurmonov A.O'zbek tilshunosligi tarixi.-Toshkent:"O'zbekiston",2002
3. Mengliyev B.O'zbek tili grammatikasi.-Toshkent.2009.
4. Ahmadjonov S.Umumiy tilshunoslik -T: O'qituvchi 1998.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.